

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEVA MATLUBA XOLIQULOVNA

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA
IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TARIXI
(1920–1945-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX FANLARI doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Fan doktori dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of dissertation abstract of Doctor of sciences (DSc)

To‘rayeva Matluba Xoliqulovna

О‘zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi (1920–1945-yy.) 5

Тураева Матлуба Холикуловна

История социально-экономических и культурных процессов в южных регионах Узбекистана (1920–1945 гг.) 33

Turaeva Matluba Kholikulovna

History of socio-economic and cultural processes in the southern regions of Uzbekistan (1920–1945) 65

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 70

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

TO‘RAYEVA MATLUBA XOLIQULOVNA

**O‘ZBEKISTONNING JANUBIY HUDUDLARIDA
IJTIMOIY-IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TARIXI
(1920–1945-yy.)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**TARIX fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Qarshi – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2022.4.DSc/Tar 272 raqam bilan ro'yxatga olingan.


Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.qarshi.uz) va "ZiyoNet" axbopot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Ergasheva Yulduz Alimovna tarix fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yunusova Xurshida Erkinovna tarix fanlari doktori, professor Hayitov Shodmon Axmadovich tarix fanlari doktori, professor Bobojonova Dilorom Bobajonovna tarix fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "26" "06" kuni soat 9.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks (0375) 221-00-56; e-mail:qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (218 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks (0375) 221-00-56; e-mail:qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil " 3 " " 06 " kuni tarqatildi (2024- yil " 3 " " 06 " daqi 7 raqamli reestr bayonnomasi).


B.J. Eshov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
t.f.d., professor
N.N. Rajabova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
t.f.n, dotsent
K.M. Hasanov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash
raisi
muovini, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot negizida bugungi kunda ko‘plab hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy holatini ilmiy izlanishlar asosida o‘rganish, raqamli iqtisodiyot, virtual muloqot, onlayn xizmat turlari, tarixiy tadqiqotlar mavqeyi jihatidan ijtimoiy-tarixiy trend darajasiga chiqib bormoqda. Bu davriy va mintaqaviy o‘zgarishlar barcha sohalar kabi tarixiy tadqiqotlar ilmiy samaradorligini barqaror ravishda olib borishni taqozo qilmoqda. Aniqroq aytganda, zamonaviy inson tafakkurini turli tahdidlardan himoya qilish, inson ongini ma’naviy-ma’rifiy, madaniy meros g‘oyalari bilan to‘ldirish, tahdidlarga qarshi himoya mexanizmini ishlab chiqish, mafkuraviy himoyaning xalqaro strategiyasini yaratish, kibermakon tarixiy-madaniy imkoniyatlarini jamiyat manfaatlariga adekvatlashtirish masalasi bugungi jamiyatda o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan tarixiy-ilmiy tadqiqotlarning sofligini saqlash, zamonaviy tarixiy tadqiqotlar taraqqiyotida kibermakonda kiber tahdid sifatida emas, balki tarixdan ozuqa oluvchi shaxsning manfaatlariga mos ravishda rivojlantiradigan vositaga aylantirish metodologiyasini ishlab chiqarishga qaratilgan ilmiy-tarixiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tarixiy tadqiqotlar jarayonida qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalarining kiber xavfsizligini ta’minlash, onlayn foydalanishga kiritilgan tarixiy ma’lumotlar bazasidan foydalanuvchi shaxslar (ma’naviy-madaniy ozuqa oluvchi qatlam)ni ma’naviy jihatdan o‘ta kuchli qurollantirish, bu boradagi xavfsiz axborot tizimini joriy etish, yoshlarni kiber tahdidlardan himoya qiluvchi axborot nazorati mexanizmini ishlab chiqish, turli aqidalarga berilmaslikni targ‘ib qiluvchi tadqiqotlar muhim dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotida, xususan, shaxsning ma’naviy-madaniy barkamolligini ta’minlashda, turli “aqidaparastlik”ning oldini olishda, millatlararo barqarorlikni ta’minlashda, yosh avlodlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bu jarayon davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanishi barobarida, “ma’naviy-madaniy tarbiya tizimini o‘zgartirmasdan, inson ongi va tafakkurini o‘zgartirib bo‘lmaydi” tamoyili ustunlik qilmoqda. Zero, “...Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi – hammasini haqqoniy yozish kerak”¹. Bu esa, o‘z navbatida, mavzuning dolzarblik jihatini yana bir karra tasdiqlaydi. Bu borada hozirgi davr tadqiqotlarida sovet davri ma’lum mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixini o‘rganish bugungi O‘zbekiston tarixshunosligida dolzarb ilmiy masala sifatida kun tartibiga qo‘yilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi PQ-3182-son “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-son “Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada

¹ <https://www.gazeta.uz/oz/2021/08/31/president/>

chuqur o'rganish va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-iyundagi 357-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta'lim muassasalari tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeylari hamda "Shahidlar xotirasi" jamoat fondini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"²gi Farmoni va shu sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi³.

Hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi masalasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari Garvard universiteti Rossiya va Yevrosiyoni tadqiq qilish Devis markazi (The Davis Center for Russian and Eurasian Studies at Harvard University), Yevropa, Rossiya va Yevrosiyo tadqiqotlari instituti (Institute for European, Russian and Eurasian studies) (IERES), Blumingtondagi Indiana universiteti Markaziy Yevrosiyo bo'limi (Department of Central Eurasian studies, Indiana University, Bloomington (AQSH), Sharqshunoslik va Afrika tadqiqotlari instituti (The School of Oriental and African Studies (SOAS)), Kembrij universiteti (University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Gumboldt universiteti Osiyo va Afrika tadqiqotlari instituti (The Institute for Asian and African Studies of Humboldt University (Germaniya), Avstriya FA Eronshunoslik instituti (Austrian Academy of Sciences Institute of Iranian Studies (Avstriya), Rossiya FA Tarix instituti (Институт истории АН России), Moskva davlat universiteti, Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti (Институт Стран Азии и Африки Московского государственного университета имени М.В. Ломоносова (Rossiya Federatsiyasi)) kabilarda olib borilmoqda.

Jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixiga oid quyidagi ilmiy natijalar olingan: sovet davlatining iqtisodiy sohada amalga oshirgan o'zgarishlari, kollektivlashtirish jarayonlari, musulmon jamiyatidagi diniy va dunyoviy o'zgarishlar va ularning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan (French Institute for Central Asian Studies (IFEAC), Fransiya); iqtisodiy sohadagi, ijtimoiy hamda

² <https://lex.uz/docs/5841063>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni (28.01.2022 yil).

³ Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar sharhi <https://ifeac.hypotheses.org/>; <https://www.centralasiaprogram.org/>; <https://daviscenter.fas.harvard.edu/research-initiatives/program-central-asia>; <https://snu.ac.kr/eng/index.php/research/regional-research/center-for-eurasian-and-central-asian-studies/>; <https://www.iaaw.hu-berlin.de/de>; <http://www.cccar.hu/>; <http://iaas.msu.ru/index.php/ru/>.

madaniy o'zgarishlar, xo'jaliklar va sug'orilish tizimlari bilan bog'liq ma'lumotlar aniqlangan (The George Washington University, Centre of scientific investigation of Central Asia, AQSH); sovet hokimiyati yillarida O'rta Osiyo hududi aholisi ijtimoiy hayotidagi muammoli jarayonlar va u bilan bog'liq masalalarning ba'zi jihatlari ochib berilgan (Harvard University, AQSh); O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligida amalga oshirilgan o'zgarishlar, yer-suv islohotlarining o'tkazilishi, uning natijalari, jamoalashtirish, quloqlashtirish siyosati va mazkur jarayon bilan bog'liq o'zgarishlar yoritilgan (Russian Research Institute, AQSH); sovet davlati mafkurasi, uning jamiyat rivojiga ko'rsatgan salbiy oqibatlarini (Frankfurt University, Germaniya); sovet hukmron mafkurasi ta'sirida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar, ta'lim tizimi, adabiyot, madaniy-ma'rifiy muassasalar yo'nalishlari asosida ochib berilgan (The School of Oriental and African Studies (SOAS) University of Cambridge, Angliya); O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotidagi o'zgarishlarga sovet davlatining salbiy munosabati va milliy madaniyatning ahvoli ko'rsatilib, tadqiq etilgan (Institute for European, Russian and Eurasian studies (IERES), AQSh).

Bugungi kunda dunyoning yirik ilmiy va strategik tadqiqot markazlari tomonidan O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixini o'rganishga doir qator ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: Sovet davlatining o'rnatilishi, BXS, uning faoliyati bilan bog'liq masalalar, istiqloqlilik harakati, majburiy ravishda jamoa xo'jaliklarining tashkil etilishi, an'anaviy ta'lim tizimiga bo'lgan munosabat masalasi, xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb etilish holatlari, ikkinchi jahon urushi mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ta'siri hamda ularning oqibatlarini o'rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi⁴. Tadqiqotda XX asrning 20–40-yillarida O'zbekiston janubiy hududlarida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi tarixshunosligi masalalarini qamrab olgan ilmiy izlanishlar uch guruhga bo'lib o'rganildi: 1. Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar. 2. Mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlar va amalga oshirilgan ishlar. 3. Xorijlik mualliflarning asarlari.

Muammoga doir tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, mahalliy va xorijiy tarixshunoslikda O'zbekiston janubiy hududlarining 1920–1945-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixi yaxlit, kompleks ish sifatida alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1920–1945-yillarda O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi mavzusini ilmiy jihatdan ochib berish.

Tadqiqotning vazifalari:

1920–1945-yillarda O'zbekiston janubiy hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixini ilmiy-nazariy, metodologik asoslarini tadqiq etish;

⁴ Dissertatsiya I bobining "Mavzuning manbahunosligi va tarixshunosligi" deb nomlangan paragrafida atroflicha tahlil qilingan.

mavzuning tarixshunosligi masalalarini ochib berish;

BXSR boshqaruvi yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari aholisining iqtisodiy-ijtimoiy hayotini o'rganish;

sog'liqni saqlash va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, shuningdek, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatini tahlil qilish;

1925–1940-yillarda qishloq xo'jaligi sohasidagi siyosat va uning o'ziga xos jihatlarini ochib berish;

kadrlar tayyorlash borasida amalga oshirilgan ishlarning mazmun va mohiyatini ko'rsatib berish;

Ikkinchi jahon urushi yillarida ijtimoiy ahvol, iqtisodiy sohaning front ehtiyojlari uchun yo'naltirilishi jarayonlarini tahlil qilish;

o'rganilgan masalalar yuzasidan tegishli xulosalar chiqarish hamda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini 1920–1945-yillarda O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti sifatida 1920–1945-yillarda Janubiy O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan o'zgarishlar jarayoni belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Mavzuni yoritish jarayonida tarixiylik, tizimlilik, xolislik, izchillik, haqqoniylik, o'zaro aloqadorlik, qiyosiylik, muammoviy-hududiy yondashuv, manbalarni tahlil qilish kabi ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1920–1924-yillarda BXSR tarkibida bo'lgan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari aholisi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy o'zgarishlarga tortilgani, sovetlashtirish va kommunistik mafkura ta'sirida an'anaviy xo'jalik va kundalik maishiy turmushdan uzoqlashishi yuz berganligi, qishloq xo'jaligini hukmron mafkura foydasiga yaxshilash maqsadida aholiga kredit berishning joriy etilganligi, aholi o'rtasida yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligi, tibbiyot muassasalarining deyarli yo'q ekanligi, maktab ta'limini yaxshilashga alohida e'tibor qaratilganligi, murakkab tarixiy vaziyatda ham janubiy hududlar aholisi milliy o'zligini va madaniy merosni saqlab qolishga intilganligi dalillangan;

1925–1941-yillarda janubiy hududlar iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi yetakchi o'rin tutganligi, yer-suv islohotlarini amalga oshirish jarayonida jiddiy qarama-qarshiliklar sodir etilganligi, jamoa xo'jaliklarini tashkil etishda ixtiyoriylikka amal qilinmaganligi, quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilish jarayonlarining zo'ravonlik xususiyatlari, dehqonchilikda paxtachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligi, sanoat korxonalarining 90 foizi qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlashga mo'ljallanganligi, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida, asosan, hunarmandchilik artellari faoliyat ko'rsatganligi isbotlangan;

1930-yillardan boshlab aholi yashash sharoitlarida (yerlar bo'lib berilganligi, tibbiy xizmatning yaxshilanishi va h.k.) o'zgarishlar qilinganligi, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash muammosi ta'sirida o'lkada ijtimoiy muammolarning keskin tus olganligi, kundalik ehtiyoj mollariga bo'lgan talab, asosan, hunarmandchilik artellari hisobidan qondirilganligi, davolash muassasalari sonining ko'payganligi, xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilish jarayonlari bilan bog'liq muammolar

(erta turmushga berish, ish bilan ta'minlanishi, "Hujum" harakati tufayli xotin-qizlarga o'tkazilgan tazyiqlar va bosh.) va ularning oqibatlari tarixiy dalillar asosida ko'rsatib berilgan.

XX asrning 20–30-yillarida ta'lim tizimida yangiliklar qilinganligi, xususan, an'anaviy maktab va madrasalarning yopilishi, aholining barcha qatlamlari uchun majburiy ravishda sovet ta'lim tizimining joriy etilganligi, maktablar uchun binolarning yetishmasligi, o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash jarayonida muammolarning mavjudligi, tashkil qilingan klub, qizil choyxona, qizil burchak va an'anaviy choyxonalarining sovet siyosati targ'ibotiga xizmat qiluvchi tadbirlar markaziga aylantirilganligi, aholining ijtimoiy faollashuvi, savodsizlikning tugatilishi kabi ijobiy natijalari bilan birga, milliy qadriyatlarining yo'q qilinishi, ijtimoiy-psixologik muhitni mafkuraga moslashtirish kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarganligi dalillangan.

Ikkinchi jahon urushi yillarda janubiy viloyatlardan frontga safarbar etish sharoitida yuzaga kelgan vaziyat, safarbar etilganlar orasida xotin-qizlarning ham mavjudligi, aholi yashash sharoitlarining o'ta og'ir ahvolda bo'lganligi, mahalliy sanoat korxonalari jangchilarni issiq kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda jonbozlik ko'rsatganliklari, 1943-yilda Qashqadaryoda 42,0 ming gektar yer qo'shimcha o'zlashtirilganligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda janubiy hududlar aholisi yetakchilik qilganligi, Dehqonobod rayonidan osh tuzi qazib chiqarilganligi arxiv hujjatlari asosida ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

O'zbekistonning janubiy hududlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixiga oid ko'plab manbalar va ilmiy asarlar xolisona tahlil qilinishi asosida yangi uslubiy va nazariy yondashuvlar ishlab chiqildi;

O'zbekiston janubiy hududlarining 1920–1945-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixiga oid ko'plab arxiv hujjatlari va boshqa birlamchi manbalar ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi;

1920–1945-yillarda janubiy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixiga oid tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy tavsiyalar va nazariy xulosalardan madaniy meros sohasidagi ma'lumotlarni ilmiy jihatdan boyitishda foydalanildi;

Amaliy natijalar bo'yicha takliflar (3-punktida) tavsiyalar (2-punktida) va xulosalar (13-punktida) O'zbekistonda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalardagi islohotlarning mazmun-mohiyatini tushunib yetishga va bu boradagi tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda zamonaviy tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo'llanilganligi, iste'molga kiritilmagan keng hajmdagi arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallaridan foydalanilganligi, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi hamda olingan natijalarning vakolatli tashkilot va muassasalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati 1920–1945-yillarda O'zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi, uning o'ziga xos jihatlarini tarixiylik, obyektivlik prinsiplariga tayanib, birlamchi tarixiy manbalar asosida ochib

berilganligi hamda muammoga oid metodologik-uslubiy yondashuvlar va nazariy xulosalarni takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O‘zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi bo‘yicha olingan natijalardan, xalqimizning sovet davridagi tarixini tadqiq etishda, qo‘llanma va darsliklar yaratishda hamda “O‘zbekiston tarixi”, “O‘zbek davlatchiligi tarixi”, “Qashqadaryo vohasi tarixi” kabi fanlarni o‘qitish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixiga (1920–1945-yy.) oid ishlab chiqilgan ilmiy natijalar va takliflardan:

1925–1941-yillarda O‘zbekiston janubiy hududlari iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi yetakchi o‘rin tutganligi, yer-suv islohotlarini amalga oshirish jarayonida jiddiy qarama-qarshiliklar sodir etilganligi, jamoa xo‘jaliklarini tashkil etishda ixtiyoriylikka amal qilinmaganligi, quloqlashtirish siyosatining amalga oshirilish jarayonlarining zo‘ravonlik xususiyatlari, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida, asosan, hunarmandchilik artellari faoliyat ko‘rsatganligiga oid ma‘lumotlardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysini yozishda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 10-apreldagi 06-48-994-son ma‘lumotnomasi). Natijada tomoshabinlarning janubiy viloyatlar tarixi bo‘yicha yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lish va janubiy viloyatlar aholisining 1925–1941-yillardagi hayoti haqida tasavvurlarini kengaytirish imkoniyatini bergan;

1920–1924-yillarda O‘zbekiston janubiy hududlar aholisi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma‘rifiy o‘zgarishlarga tortilgani, sovetlashtirish va kommunistik mafkura ta‘sirida an‘anaviy xo‘jalik va kundalik maishiy turmushdan uzoqlashishi yuz berganligi, maktab ta‘limini yaxshilashga alohida e‘tibor qaratilganligi, murakkab tarixiy vaziyatda ham janubiy hududlar aholisi milliy o‘zligini va madaniy merosni saqlab qolganligiga oid ilmiy natijalar, taklif va tavsiyalar Qashqadaryo viloyat hokimligining 2021–2022-yillardagi yoshlar siyosati va ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatida amaliyotga tadbiiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qashqadaryo viloyati hokimligining 2023-yil 10-maydagi 07-01072-son ma‘lumotnomasi). Natijada yoshlarning o‘tmish tariximizga oid bilimlarini boyitishga, shuningdek, ularni vatanparvarlik ruhida, komil inson sifatida tarbiyalanishiga xizmat qilgan.

1930-yillardan boshlab aholi yashash sharoitlarida bir oz bo‘lsa-da, o‘zgarishlar qilinganligi, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlash muammosi ta‘sirida o‘lkada ijtimoiy muammolarning keskin tus olganligi, xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilish jarayonlari bilan bog‘liq muammolar, uning oqibatlari ochib berilgan ilmiy natijalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2020–2024-yillarga mo‘ljallangan dasturlarida foydalanilgan (O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2023-yil 12-apreldagi 02-02/18-son ma‘lumotnomasi). Ilmiy natijalar O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining saylovoldi dasturlarini ishlab chiqish va qabul qilish imkonini bergan.

XX asrning 20–30-yillarida ta‘lim tizimida o‘zgarishlar qilinganligi, sovet ta‘lim tizimining joriy etilganligi, tashkil qilingan klub, qizil choyxona, qizil burchak va an‘anaviy choyxonalarining sovet siyosati targ‘ibotiga xizmat

qiluvchi tadbirlar markaziga aylantirilgani, aholining ijtimoiy faollashuvi, savodsizlikning tugatilishi kabi ijobiy natijalari bilan birga, milliy qadriyatlarning yo‘q qilinishi bilan bog‘liq ma‘lumotlardan respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazining 2022–2023-yillarda o‘tkazilgan targ‘ibot faoliyatida tatbiq etilgan (Respublika ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 4-maydagi 168-son ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy ma‘lumotlar aholining ma‘naviy saviasining oshishiga, xalqimizning mehnatsevarligi, mehmondo‘stligi, bag‘rikengligi kabi fazilatlari haqidagi tasavvurlari yanada kengaygayishiga xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston janubiy viloyatlar aholisining frontga safarbar etilishi jarayonlari, yuzaga kelgan qiyinchiliklar, ular orasida xotin-qizlarning ham mavjudligi, urush yillarida aholi yashash sharoitlarining o‘ta og‘ir ahvolda bo‘lganligi, janubiy voha xalqining jangchilarni issiq kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlashda jonbozlik ko‘rsatganliklari haqidagi ma‘lumotlardan madaniy meros sohasidagi ma‘lumotlarni ilmiy jihatdan boyitishga xizmat qilgan (O‘zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2023-yil 4-maydagi 04-05/1409–son ma‘lumotnomasi). Natijada Ikkinchi jahon urushi yillarida vohalar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida yetarli ma‘lumotga ega bo‘lib, urush yillaridagi o‘ta og‘ir jarayonlarni mardona yengib o‘tgan insonlarga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 20 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, shu jumladan, 5 ta xalqaro konferensiya: “XX asrning 20–30-yillarida Qarshi shahar madaniy hayotidagi o‘zgarishlar” (Qarshi, 2005); “XX asr boshlarida Qashqadaryoda ta‘lim tizimi” (Qarshi, 2022); “O‘zbekiston xotin-qizlarining ikkinchi jahon urushidagi jasoratlari” (Qarshi, 2020); “History of teacher training processes in south Uzbekistan (In the example of the 20-30s of the 20th century)” (London, 2023); “Activities of club institutions in the southern regions of Uzbekistan in the 20s and 30s of the 20th century” (Germany, 2023) va 15 ta ilmiy, ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 41 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 14 ta maqola, respublika va xalqaro konferensiyalarda 20 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 5 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati, shartli qisqartmalar, atamalar izohi hamda ilova qismlardan iborat bo‘lib, uning tadqiqot qismi 242 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, mavzu bo‘yicha xorijiy tadqiqotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o‘rganilganlik darajasi, uning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va

predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar keltirilgan.

“Mavzuning ilmiy-nazariy metodologiyasi, manbashunosligi va tarixshunosligi” deb nomlangan birinchi bobda mavzuning metodologik asoslari, manbashunosligi hamda tarixshunosligi tahlil etilgan. Ushbu bobning birinchi paragrafi “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning metodologik asosi” deb nomlanadi. Jahonda turli fan sohalari bo‘yicha mukammal metodologiyani yaratish masalasiga doimiy ravishda jiddiy e’tibor berib kelingan. Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida XX asr tarixida sodir bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy ishlar ayrim hollarda yuqorida qayd etilgan uchta yo‘nalishni yaxlit holda qamrab olish orqali tahlil etish bilan bog‘liq. Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari jahonning mashhur olimlari hisoblangan M. Blok, E. Frimen, A.Dj. Toyibi, I.D. Kovalchenko⁵ va boshqa olimlarning asarlarida ko‘rsatib berildi. XX asrning birinchi yarmida tarix fani metodologiyasining rivojlanish tendensiyalari V. Diltey, F. Meyneke⁶ kabi olimlar qarashlarida o‘z ifodasini topdi. Mazkur davrda tarix fani predmetining maydoni kengayib bordi va mintaqalar tarixi alohida ilmiy yo‘nalish sifatida paydo bo‘ldi. Shuningdek, ilmiy muomalaga kundalik tarix, mentallik tarixi, total tarix singari tushunchalar kirib keldi. Ammo sovet tuzumi davrida bu nazariyalarni tan olish, tarix fani muammolarini hal etishda qo‘llashning imkoni yo‘q edi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab globallashuv bilan birga, mintaqalashuv jarayoni ham jahon taraqqiyotining muhim tendensiyasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu jarayon tarixchi olimlarda mintaqalar tarixini o‘rganish va uning metodologiyasini yaratishga qiziqishni kuchaytirdi. Zotan, ayrim mintaqalar (yoki hududlar) tarixini o‘rganish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari shu hududlarni barqaror rivojlantirish va taraqqiyotning strategik yo‘nalishlarida uzoq muddatli va ishonchli prognozlar qilishning muhim sharti hisoblanadi.

“Yangi tarix fani” ijtimoiy-madaniy makonda inson faoliyatining barcha shakllarini o‘rganib, ularni yagona tarixiy kenglikning boshqa unsurlari bilan taqqoslashni, inson hayotining har qanday ko‘rinishini tarixiy rekonstruksiya qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Mikrotarix, intellektual tarix, kundalik turmush tarixi, og‘zaki tarix, mahalliy tarix tarixshunosligi kabi tushunchalar lokal

⁵ Блок М. Апология истории, или Ремесло историка. – М., 1986; Фримен Э. Методы изучения истории // Пер. с англ. – М., 1986; Тойнби А. Дж. Постигание истории. – М., 1991; Ковальченко И. Д. Методы исторического исследования. – М., 2003.

⁶ Дильтей, В. Собрание сочинений в 6 тт. Под ред. А. В. Михайлова и Н. С. Плотникова. Т. 1: Введение в науку о духе: Опыт полагания основ для изучения общества и истории / Пер. с нем. под ред. В. С. Малахова. – М.: Дом интеллектуальной книги, 2000; Ф. Мейнеке. Возникновение историзма. – М., РОССПЭН, 2004.

jamiyat tarixini real konstruksiyalash imkonini beradi⁷. Bunday metodologik ta'rif etnomadaniy jihatdan mintaqalar bir-biridan keskin farq qilmaydigan O'zbekiston uchun ham muhimdir.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda tarix fani metodologiyasi bilan shug'ullangan o'zbekistonlik M. Is'hoqov, D. Alimova, Z. Ilxomov, S. Shadmanova, M. Yuldashev, A. Rasulov, A. Isoqboyev kabi olimlarning asarlaridan foydalanildi⁸. Tadqiqotda O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot tarixini tadqiq etishda qiyosiylik, ilmiylik, tarixiylik, xolislik, haqqoniylik, izchillik, uzviylik kabi usullarga amal qilindi. Shuningdek, tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini ishlab chiqishda milliy yuksalish g'oyasiga muvofiq nazariy metodologiya va yondashuvlar tanlandi. Bundan tashqari, tadqiqotning analiz va sintez, tizimlilik, analogiya va qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya, oddiydan murakkabga, noaniqlikdan aniqlik tomon kabi uslublar ham keng qo'llanildi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi "Mavzu manbashunosligi va tarixshunosligi" deb nomlangan. Tadqiqot ishini yozishda O'zbekistonning markaziy va janubiy hududlarida joylashgan arxiv hujjatlaridan keng foydalanildi. Xususan, O'zbekiston Milliy arxivining (O'zMA) 18 ta fondida saqlanayotgan hujjatlardan qimmatli ma'lumotlar olindi va is'temolga kiritildi.

O'zbekiston hududidagi 7 ta davlat arxivi va uning filiallariga tegishli 35 ta fondan olingan hujjatlarga muvofiq, janubiy hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi tanqidiy va qiyosiy tahlil etish hamda haqiqiy ahvolni oydinlashtirish, erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni xolisona tasniflash orqali tadqiq etilgan.

Davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar muhim ahamiyatga ega bo'lib, voqea zamondoshlari va guvohlarining qarashlarini o'zida aks ettirishi bilan qimmatli hisoblanadi. Og'zaki tarix ma'lumotlaridan, asosan, ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rganishda foydalanildi.

Dissertatsiya mavzusiga oid adabiyotlar uch guruhga bo'lingan holda tahlil etildi. 1. *Sovet hokimiyati yillarida yaratilgan adabiyotlar*. 2. *Mustaqillik davri adabiyotlari*. 3. *Xorijiy tadqiqotlar*.

Sovet davri adabiyotlarining alohida ajralib turadigan xususiyati shundan iboratki, ularda xolislik tamoyillari buzilgan, o'tmish tariximizni yoritish jarayonida sinfiy yondashuv ustunlik qilgan. Biroq tarixchilar o'z asarlari orqali juda katta hajmdagi ashyoviy materiallarni ilmiy muomalaga kiritdilarki, bugungi zamonaviy tadqiqotlarni yaratishda bu materiallarga tanqidiy ko'z bilan nigoh tashlab, ularni qayta baholash va talqin qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

⁷ Булыгина Т.А. Региональная история: поиски новых исследовательских подходов. [https://www. history.vuzlib.su/book_o064_page_75.html](https://www.history.vuzlib.su/book_o064_page_75.html)

⁸ Исхоқов М. Тарихий жараён ва хolislik мезони: тарих ва тараққиёт // Тафаккур. – Тошкент, 1999. – №1. – Б. 30-31; Алимova Д.А. История как история, история как наука. 1 том. История и историческое сознание. – Ташкент, Узбекистан, 2008. – 280 с.; Алимova Д., Илхомов З. Тарих фани методологияси. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари жамияти, 2018; Shodmanova S. Тарих tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari. – Тошкент, Barkamol Fayz media, 2018. – 216 б.; Шадманова С., Юлдашев М. Тарихий tadqiqotlarining metodologiyasi va zamonaviy usullari. – Тошкент: Ўзбекистон. 2019. – 288 б.; Расулов А., Исқобоев А. Тарих фани tadqiqotlarining asoslari va usulbiёti. – Тошкент: Турон-икбол, 2021.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida yaratilgan tadqiqotlarning mualliflari, asosan, Buxorodagi taraqqiyparvarlar harakati va Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbarlaridan bo‘lgan Fayzulla Xo‘jayev⁹, S. Ayniy, P.P. Vvedenskiylar¹⁰ hisoblanadi. Ushbu mualliflarning asarlari o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritishda birlamchi manbalar bo‘lib hisoblanadi.

XX asr 50–80-yillarida yaratilgan tarixiy tadqiqotlarda¹¹ BXSР yillari davri tarixi va undan keyingi, ya’ni qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish, yer-suv islohotlarining amalga oshirilishi, iqtisodiy jarayonlar, sanoat, quloqlashtirish siyosati, aholining milliy tarkibi, ijtimoiy ahvoli¹², ta’lim¹³, madaniy soha¹⁴ tarixiga oid asarlar alohida o‘rin egallaydi.

Mazkur mualliflarning asarlarida qimmatli manbalar mavjud, ammo ular ham o‘sha davr jamiyatida hukmron bo‘lgan markscha-lenincha uslub asosida yozilgan bo‘lib, tarixiy jarayonlarga bir tomonlama baho beradilar.

Ikkinchi jahon urushi yillariga oid asarlarga davlat rahbarining matbuotda e’lon qilgan nutqlari asosida chop etilgan risolalar¹⁵, shuningdek, E. Voskoboynikov, I. Po‘latov, R. Karimov, S. Mamajonov, E. Abdurahmonov¹⁶ asarlarini kiritish mumkin. Mazkur adabiyotlarda urush yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, madaniy sohaning turli yo‘nalishlarida amalga oshirilgan ishlar xususida fikr yuritilgan.

⁹ Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. – Ташкент: “Узгосизд”, 1926. – 77 с.; Ўша муаллиф: К истории революции в Бухаре и национального размежевания Средней Азии. – Ташкент: Узгосизд, 1932.

¹⁰ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. – М.: СССР халқлари марказий нашриёти, 1926; Введенский П.П. Денежное обращение в Таджикистане. 1923–1925 гг. – Ташкент: Востказгосиздат, 1926. – 96 с.

¹¹ Ишанов А. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920–1924 гг.) – Ташкент, Изд. АН УзССР, 1955. – 180 с.; Ўша муаллиф. Бухарская Народная Советская Республика. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – 392 с.; История Бухарской и Хорезмской Народных Советских Республик. – М.: Наука, 1971. – 256 с.; Зиманов С. От освободительных идей к советской государственности в Бухаре и Хиве. – Алма-Ата: Наука, 1976. – 220 с.; Алимов И. Аграрные преобразования в Хорезме и Бухаре (1920–1924 гг.). – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 224 б ва бошқалар.

¹² Мўминов Н.М. Советларнинг Ўзбекистонни саноатлаштириш учун кураши (1928–1932 йй). – Тошкент, 1959. – 302 б.; Аминова Р.Х. Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода Советского государства к НЭПУ. – Ташкент, Наука, 1965. – 347 с.; Ўша муаллиф. Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг аграр сиёсати ва уни сохталаштирувчилар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 181 б.; Победа колхозного строя в Узбекистане (1933–1941 гг.). – Ташкент, Фан, 198. – 291 с.; История развития хлопководства в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1983. – 291 с.; – 370 с.; Зиядуллаев С.К. Социально-экономическое развитие Узбекистана за годы Советской власти. – Ташкент, Узбекистан, 1974. – 207 с.; Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана советского периода (1917–1932 г.). – Ташкент, 1968. – 227 с. ва бошқалар.

¹³ Ражабов С. Ўзбекистонда Совет мактаби тарихига доир. – Тошкент, 1957. – 133 б.; Кадыров И. Успехи народного образования в Узбекской ССР за 40 лет. – Ташкент, 1957; Шарофидинов Р. Школьное образование в Узбекской ССР (1917–1955). – Ташкент, 1961. – 72 с.; Орипов Ф. Ўзбекистонда саводсизликнинг тугатилиши. – Тошкент, 1967. – 100 б.; Шарипов Ф. Народное образование в Узбекистане. – Ташкент, 1977. – 116 с. ва бошқалар.

¹⁴ Кары-Ниязов Т.Н. Очерки истории культуры советского Узбекистана. – М., 1955. – 560 с.; Абдуллаев Ш. Из истории культуры народов Узбекистана (1921–1932 гг.). – Ташкент: Ўздавнашр, 1960. – 210 с.; Пулатов Х. Культурно-воспитательная деятельность советского государства в Узбекистане. – Ташкент, Госиздат, 1959. – 137 с.; Акилов К.А. Развитие культуры в Узбекистане за годы советской власти. – Ташкент, 1984; Рахмонов Н. Умаралиев А. Совет Ўзбекистони маданияти тарихи очерклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984; – 251 б.; Рўзметов А. Клуб муассасалари ва қишлоқ аҳолисига маданий хизмат кўрсатиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980. – 32 б. ва бошқалар.

¹⁵ Охунбобоев Й. Ўзбекистонда пахтачиликни янада ривожлантириш. – Тошкент: Ўздавнашр, 1941. – 26 б.; Ўша муаллиф. Трудящиеся Узбекистана – фронту. – М.: Профиздат, 1942. – 39 б.; Ўша муаллиф. СССР халқларининг улуғ дўстлиги мустаҳкам. – Тошкент: Ўздавнашр, 1942. – 39 б.; Юсупов У. Великая Отечественная война Советского народа и наши задачи (Доклад на совещании агитаторов и пропагандистов г. Ташкента). – Ташкент: Ўздавнашр, 1941. – 44 с.

¹⁶ Воскобойников Э.А. Ўзбек халқи Улуғ Ватан уруши йилларида. – Тошкент, 1947. – 45 б.; Пўлатов И. Из истории участия народов Средней Азии в Великой отечественной войне. – Ташкент, 1966. – 228 с.; Каримов Р. Совет Ўзбекистони санъати улуғ Ватан уруши йилларида. – Тошкент, 1970. – 37 б.; Мамажонов С. Улуғ Ватан уруши даврида ўзбек адабиёти. – Тошкент, 1975. – 172 б.; Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). – Ташкент, 1981–1985 гг. – 407 с.; Абдурахмонов Э. Ўрта Осиё республикалари олимларининг фронтга қўшган ҳиссаси. – Тошкент, 1990. – 48 б. ва бошқалар.

Bu davrda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixiga bag'ishlangan ko'plab dissertatsiya ishlari ham himoya qilindi. Jumladan, N.M. Raxmonov, A. Uralov, F. Jumaboyev, M. Qodirov, O. Eshquvvatov, B.S. Samadov, S.M. Zaxarov, S.N. Tursunov¹⁷ tadqiqot ishlarini ko'rsatib o'tish joizdir. Mualliflar sovet hukumati va kommunistik partiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yuzasidan amalga oshirgan ishlarini ko'rsatib berish bilan birga, ba'zi masalalar yuzasidan o'zlarining fikrlarini ham bildirib o'tadilar.

Mustaqillik yillarida o'tmish tariximizni o'rganishga bo'lgan munosabatning o'zgarishi, o'z navbatida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixiga oid ko'plab asarlarning nashr etilishi imkonini berdi. BXSР yillari tarixi bayon qilingan bir qancha risola va monografiyalar chop etildi¹⁸. Ushbu asarlarda Buxoro amirligining sovet qo'shinlari tomonidan bosib olinishi, BXSР tashkil topishi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bog'liq masalalar xususida fikr yuritilgan.

Sovet davlatining O'zbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixining turli davrlarini o'z ichiga olgan monografiyalar¹⁹ va kitoblar²⁰ chop

¹⁷ Рахмонов Н.М. Культурное строительство в Бухаре (1925–1932 гг). Дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1961. – 285 с.; Уралов А. Создания и развитие Советской культуры Бухарской народной Советской Республики (1920–1924 гг). Автореф. дисс...канд. ист. наук. – Ташкент, 1962. – 20 с.; Кадыров М. Социалистическое переустройство сельского хозяйства Кашкадарьинской области Узбекской ССР (1925–1941 гг). Автореф. дисс... канд.ист.наук. – Ташкент, 1970. – 23 с.; Эшқувватов О. История развития социалистических городов Карши и Шахрисабза (1925–1965 гг) Дисс. ... канд.ист.наук. – Ташкент, 1970. – 313 с.; Самадов Б.С. Советизация Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана и переход к социалистической реконструкции народного хозяйства на юге Узбекистана (1924–1929 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист.наук. – Ташкент, 1970. – 22 с.; Захаров С.М. Исторический опыт коммунистической партии советского союза по осуществленного перехода отсталых стран к социализму, минуя капитализм (1917–1941 гг) на материалах юга Узбекистана) автореф. дисс. ...канд. ист. наук. – Ташкент, 1972. – 23 с.; Турсунов С.Н. «История развития новых социалистических городов Узбекистана-Денау и Шерабада» Автореф. дисс. ...канд. ист.наук. – Ташкент, 1985. – 20 с. ва бошқалар.

¹⁸ Рашидов У. Бухоро Халқ Республикаси (1920–1924 й.). – Бухоро, 2003. – 69 б.; Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920–1924 й.). – Тошкент: Фан, 2004. – 102 б.; Ҳайитов Ш., Бадриддинов С., Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: иқтисодий, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 йиллар). – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2005. – 154 б.; Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920–1924 йй). – Тошкент: Abumatbuot-konsalt, 2012. – 176 б.; Пардаев А. Бухоро ва Хоразмдаги иқтисодий кенгашлар фаолияти (1920–1924 йиллар). – Тошкент: Янги нашр, 2015. – 152 б. ва бошқалар.

¹⁹ Аминова Р.Х. История совхозов Узбекистана. 1917-1960. – Ташкент: Фан, 1993. – 210 с.; Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. – Ташкент, 1997. – 210 с.; Алимова Д., Голованов А. Ўзбекистон мустақил совет тузumi даврида: сиёсий ва мафкуравий таъйик оқибатлари (1917–1990 й.). – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 72 б.; Шодиев Т. Шахрисабза тиббиёт тараккиятининг нури йўли. – Қарши, 2004. – 95 б.; Ҳайитов Ш., Бадриддинов С. Бухоро Халқ Совет Республикасида халқ саломатлигини мустаҳкамлаш учун кураш тарихидан (1920–1924 йиллар). – Бухоро, 2005. – 24 б.; Голованов А.А., Саидов И.М. Дехканство Узбекистана на историческом повороте втором половине XIX – первой трети XX вв. – Самарканд, 2007. – 384 с.; Расулов Б.М. Ўзбекистонда коллективлаштириш жараёнидаги сиёсий қатагонлар ва сургун қилинган дехқонлар аҳоли. (1929–1959 йй). – Тошкент: Шарқ, 2012. – 368 б. Шодмонова С.Б. Ўзбекистон шаҳарлари трансформацион жараёнлар (1917–1941 й). – Тошкент: Адабиёт уқунлари, 2015. – 336 б.; Махмудов М. История медицины и здравоохранения Туркестана, Бухары и Хорезма (1865–1924 гг) Тараз, 2015. – 344 б.; Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент, Yangi-nashr, 2015. – 336 б.; Тўраева М.Х. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида маданий ҳаёт (1920–1940 йй). – Тошкент: Voris nashriyoti, 2020. – 120 б. ва бошқалар.

²⁰ Қобулов Э. Сурхондарё саноатининг илк одимлари. – Термиз, 1993. – 30 б.; Жўракулов О. Қашқадарё манғитлари. – Тошкент: Фан, 1993. – 255 б.; Мирзаев З., Қобулов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи. – Термиз: Жайхун, 1996. – 86 б.; Ўзбекистоннинг янги тарихи. К 2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳаррир М. Жўраев – Тошкент, 2000. – 688 б.; Шамсутдинов Р.Т. Ўзбекистонда советларнинг кулоклаштириш сиёсати ва унинг фожеали оқибатлари. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 368 б.; Шамсутдинов Р., Мамажонов А. Шимолий Кавказ сурғунидаги юртдошлар қисмати. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 336 б.; Турсунов С., Турсунов А. Шеробод тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Янги нашр, 2014. – 353 б.; Авлиякулова Д. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларидаги қатагон сиёсати ва унинг оқибатлари. – Тошкент, 2016. – 118 б. ва бошқалар.

etildi. O‘zbekiston hududida sovxozlarning tashkil etilishi, qishloq xo‘jaligidagi kollektivlashtirish siyosati masalalari R.X. Aminovanning asarida, jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati, quloq xo‘jaliklarining tugatilish jarayonlari, surgundagi dehqonlar qismati, ularning fojiali taqdiri R.Shamsutdinov va bir guruh olimlar tomonidan yozilgan asarlarda o‘z aksini topgan. Shuningdek, ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekistonning ishtiroki, iqtisodiy sohadagi qiyinchiliklar, aholining ijtimoiy ahvoli, ta‘lim, madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyatiga oid asarlar, monografiyalar nashr etildi²¹ va tarixiy jarayon asl manbalar asosida yoritib berildi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning ba‘zi jihatlari tadqiq etilgan dissertatsiyalar²² himoya qilindi.

Mazkur dissertatsiya ishlarida BXSР yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvol, madaniy sohalarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar, shuningdek, O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy va madaniy sohalar bilan bog‘liq ma‘lumotlar tahlil etilgan. Sovet davlatining madaniy sohada²³ olib borgan ishlari bo‘yicha ham bir qancha tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Xususan, N. Mustafayeva tadqiqot ishida XX asrning 20–30-yillarida O‘zbekiston madaniyatining asosiy

²¹ Ульджабаева Н.К., Эргашева Ю.А. Народное образование Узбекистана в годы Великой Отечественной войны (на материалах Кашкадарьинской области УзССР). – Карши: КарГУ, 1991. – 81 с.; Турсунов С., Пардаев Т. Шеробод меҳнаткашларининг Улуғ Ватан уруши йилларида кўрсатган жасорати. – Термиз: Жайхун, 1993. – 104 б.; Турдиев С. Жасорат унутилмайди. 1941-1945 йилларда қаршиликлар. – Қарши, 1997. – 352 б.; Голованов А.А., Саидов И.М. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом. Часть II. – Самарканд: СамГУ, 2006. – 172 б.; Иркаева Н. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари иккинчи жаҳон уруши йилларида. – Тошкент: Yangi nashr, 2015. – 144 б.; Эргашева Ю., Сафарова З. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти. – Тошкент: Voris-Nashriyot, 2015. – 211 б.; Сирожов О., Сирожов В. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Бухоро (Бухороликларнинг Буюк ғалабага қўшган ҳиссаси). – Бухоро: Дурдона, 2020. – 360 б. ва бошқ.

²² Эргашева Ж. Қашқадарё саноатининг барпо этилиши ва ривожланиш тарихи (янги таҳлил ва хулосалар 1920-1970 йй) Тарих фан. номзоди... дисс. – Тошкент, 1998. – 147 б.; Қувватова Н.Қ. XX асрнинг 20–80-йилларида Ўзбекистон қишлоқларининг ижтимоий-иқтисодий ҳаёти (Қашқадарё вилояти мисолида): Тарих фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 28 б.; Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда совет даврида соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991-йиллар). Тарих фанлари доктори (DSc) диссер. автореф. – Тошкент, 2018. – 66 б.; Каромов Ғ.Х. Туркистон АССР, БХСР ва ХХСР да соғлиқни сақлаш соҳасининг йўлга қўйилиши. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Бухоро, 2021. – 51 б.; Исаев О.А. Сурхон воҳасидаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар (1925–1941 йй) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф – Термиз, 2021. – 54 б.; Акмаматов О.Ё. Ўзбекистонда жамоалаштириш сиёсати ва унинг аҳоли ижтимоий ҳаётига таъсири (XX асрнинг 20-30-йиллари Қашқадарё вилояти мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Қарши, 2021. – 52 б.; Равшанова Г.П. Қашқадарё воҳасида совет ҳокимиятининг ўрнатилиши ва унга қарши қуролли ҳаракат (1920–1930 йиллар): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Қарши, 2022. – 52 б.; Жунаев Ҳ.А. Бухоро Халқ Совет Республикасидаги ижтимоий, иқтисодий ва маданий муносабатлар (1920–1924 йй): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Бухоро, 2022. – 57 б.; Жўраев Ҳ.А. Бухоро Халқ Совет Республикасидаги маданий ҳаёт ва ундаги ўзгаришлар (1920–1924 йй): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Бухоро, 2023. – 52 б ва бошқалар.

²³ Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития (50-60 годы). Автореф, дисс... док. ист. наук. – Ташкент, 1998. – 56 с.; Мустафаева Н. XX асрнинг 20-30-йилларида Ўзбекистон маданиятининг асосий йўналишлари ва муаммолари давр тарихшунослигида: Тарих. фан. ном... дисс. – Тошкент, 1999. – 85 б.; Тўраева М. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммо ва оқибатлар (1920-1940 йй.) (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2002. – 24.; Абдурахмонова Ж. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда таълим соҳасидаги қатағонлик сиёсати (Самарқанд, Сурхондарё ва Қашқадарё вилоятлари мисолида (1925–1941 йй.). Тарих фан. ном... дисс. автореф. – Тошкент, 2002. – 30 б.; Тиловатов Ф. Совет ҳукуматининг XX аср 20–30-йилларидаги “Маданий инқилоб” сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши. Тарих фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2009. – 176 б.; Мустафаева Н.А. Мустамлака ва совет даври тарихшунослигида Ўзбекистоннинг XX аср маданияти: Тарих фанлари док... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 84 б.; Нарманов Ф. XX асрнинг 20–30-йилларида Ўзбекистон ижтимоий ҳаётида маданий-маърифий муассасаларнинг ўрни. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2020. – 48 б.; Хасанова Н.И. Ўзбекистонда совет ҳукуматининг маданий-маънавий сиёсати ва унинг натижалари (Сурхон воҳаси ҳудуди мисолида, 1917–1941 йй.). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Термиз, 2021. – 48 б ва бошқалар.

yoʻnalishlari koʻrsatib berilganligi bilan ahamiyatlidir. F. Tilovatov tomonidan sovet hukumatining XX asr 20–30-yillaridagi “Madaniy inqilob” siyosatining amalga oshirilish jarayonlari oʻrganilgan boʻlsa, F. Narmanov tadqiqotida XX asrning 20–30-yillarida faoliyat yuritgan madaniy-maʼrifiy muassasalarning oʻrni haqida maʼlumot berildi. Bu davrda ikkinchi jahon urushi davrini oʻrganishga bagʻishlangan dissertatsiya ishlari ham amalga oshirildi. H.I. Azimov, X.B. Babadjanov, Z.S. Safarova, K.T. Toshov kabilarning tadqiqot ishlari shular jumlasidandir²⁴. Mazkur tadqiqot ishlarida ikkinchi jahon urushi yillarida Oʻzbekiston harbiylarining ishtiroki, iqtisodiy sohada amalga oshirilgan transformatsion jarayonlar, madaniyat sohasida amalga oshirilgan ishlar xususida maʼlumot berilgan.

Oʻzbekistonning sovet davridagi tarixini oʻrganish masalasiga xorij mualliflari ham oʻz eʼtiborini qaratdi. Ulardan tadqiqotchilar: V. Genis, M.A. Persis, N.A. Ivnikiy²⁵ asarlari alohida ajralib turadi. Ushbu asarlarda Buxoroda amirlik tuzumining agʻdarilishi va BXR faoliyati, jamoalashtirish, quloqlashtirish siyosati birlamchi manbalar asosida tahlil qilinadi. AQShlik olim A. Xalid²⁶ tadqiqotlarida Oʻzbekiston SSRning tashkil topishi, sovet hokimiyatining diniy sohada amalga oshirgan siyosati hamda madaniy jarayonlar xususida fikr yuritilgan.

Mustaqillik yillarida chop etilgan monografiya, darslik, risolalarda va shuningdek, amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlarida, respublika janubiy viloyatlarining 1920–1945-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixi yaxlit holatda oʻrganish maqsad qilib qoʻyilmasdan, unga doir baʼzi maʼlumotlar umumiy tarzda bayon qilingan.

Xulosa qilib aytganda, Oʻzbekiston tarixi fanida janubiy hududlarning 1920–1945-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixi masalasini maxsus oʻrgangan ilmiy ishlar mavjud emas. Shu jihatdan olib qaraganda sovet davrida respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini hududlar va mintaqalarning lokal xususiyatlaridan kelib chiqib oʻrganish real voqelikni toʻlaqonli tahlil etish va tegishli xulosalar chiqarish imkonini beradi.

²⁴ Ибрагимов Х. Социально-экономическая жизнь Узбекистана в годы Великой Отечественной войны. (1941–1945 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Андижан, 1993. – 28 б.; Азимов Х.И. Иккинчи жаҳон урушида Ўзбекистон ҳарбийлари иштироки ва мавқеи. (1941–1945 йй.). Тарих фан. ном...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Бабаджанов Х.Б. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон иқтисодийнинг трансформацияси: жараёнлар ва муаммолар. Тарих фан. бўйича фалсафа док... дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 48 б.; Усмонова М. Ўзбекистонда уруш йилларида хотин-қизлар фаолияти. (1941–1945). Тарих фан. ном. дисс... – Андижон, 2013. – 176 б.; Сафарова З.С. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Самарқанд, 2020. – 53 б.; Тошов К.Т. Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёти. (Сурхондарё воҳаси мисолида) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореф. – Термиз, 2022. – 48 б. ва бошқ.

²⁵ Генис В.Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920 году // «Вопросы истории», 1993, №7. – С. 39-53. Он же. «С Бухарой надо кончать...» К истории бутафорских революций. – М.: МНПИ, 2001; Он же: Вице-консул Введенский. Служба в Персии и Бухарском ханстве. (1906–1920 гг.). Российская дипломатия в судьбах. – М., 2003; Персиц М.А. Застенчивая интервенция. О советском вторжении в Иран и Бухару в 1920–1921 гг. 2-е изд. – М., 1999; Ивницкий Н.А. Коллективизация и раскулачивание (начало 30-х годов). – М.: Вече, 1996. – 310 с.

²⁶ Adeeb Khalid. Islam after Communism: Religion and Politics in Central Asia. – University of California Press Berkeley and Los Angeles, California; ушбу муаллиф: Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Cornell University Press, Ithaca and London, 2015.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “1920–1924-yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning tarixiy tahlili” deb nomlangan bo‘lib, unda BXSР boshqaruvi yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlari ijtimoiy-iqtisodiy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar, ularning natijalari, ta‘lim, madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyati xususida so‘z boradi.

Mazkur bobning birinchi paragrafi “BXSР boshqaruvi yillarida janubiy viloyatlar iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar” deb nomlanadi. 1920-yil 2-sentabrda Buxoroda amirlik tuzumi ag‘darildi. 6–8-oktabr kunlari Butun Buxoro xalq vakillarining I qurultoyida Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSР) tuzilganligi e‘lon qilindi. Dastlabki ma‘muriy-hududiy bo‘linish o‘tkazilib, u viloyatlar, tumanlar, kentlar va qishloqlarga ajratildi. Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida Boysun, Qarshi, G‘uzor, Sariosiyo, Shahrisabz, Sherobod viloyatlari tashkil etildi²⁷. BXSР agrar mamlakat bo‘lganligi bois, aholining asosiy qismi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullangan. Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari iqtisodiy hayotida ham qishloq xo‘jaligi yetakchi sohalardan hisoblangan. Mazkur hududda ham yerlarning asosiy qismi yirik mulkdorlar va amaldorlar ixtiyorida bo‘lib, yangi hukumat oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri yer-suv masalasini hal qilish edi. 1920-yilning 30-sentabrida Buxoro Markaziy Revkomi “Yer to‘g‘risida” dekret qabul qildi. Mazkur dekret BXSР hukumatining agrar sohada qabul qilgan dastlabki hujjati bo‘lib, unda iqtisodiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari ko‘rsatib berildi²⁸. Bu davrda mavjud yerlarning 15 foizi dehqonlarga tegishli bo‘lgan²⁹. Hukumatdagi ichki ziddiyatlar va milliy ozodlik harakatlari tufayli Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida dehqonchilik bilan shug‘ullanayotgan aholining ahvoli og‘ir holatda edi. Siyosiy qarama-qarshiliklar o‘z o‘rnida iqtisodiy tanglikni kuchaytirib, qishloq xo‘jaligi sohasining ham izdan chiqishiga sabab bo‘ldi. Shuningdek, respublika hududida yetishtirilayotgan mahsulotlarning narxi yildan yilga oshib borgan. Mazkur holatni inobatga olgan hukumat rahbariyati tomonidan aholiga turli xil yordamlar uyushtirildi. 1922-yilda Sherobod hududidagi 8 ta qishloqqa 270 botmon bug‘doy, arpa hamda mehnat qurollaridan yordam beriladi. 1923-yilda Qarshi va Chorjo‘y viloyatlarida dehqonlarga 10 ming pud bug‘doy, 5000 pud jo‘xori, 1000 pud mosh, 400 pud kunjut yuboriladi.

Vohalarning qishloq xo‘jaligida chorvachilik ham yetakchi tarmoqlardan hisoblangan. Tog‘oldi, adir va cho‘l hududlarida aholi chorvachilik bilan shug‘ullanib, vohaning tog‘li hududlarida hisori qo‘ylar boqilgan. Cho‘l hududlarida ko‘proq tuyalar, adirlarida qoramollar, otlar ko‘paytirilgan. Yerga ishlov berish jarayonida hayvonlardan unumli foydalanilgan. E. Qabulov ma‘lumotlariga ko‘ra, Surxon vohasining Denov, Yurchi, Boysun, Sho‘rchi, Jarqo‘rg‘on, Sherobod tog‘-adirilarida katta miqdordagi qorako‘l qo‘ylari boqilgan³⁰. 1923-yilga kelib chorva

²⁷Эшов Б. Ўзбекистон давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи: Иккинчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019. – Б. 297.

²⁸ ЎзМА, Р-46-фонд, 1-рўйхат, 122-йиғма жилд, 9-варақ.

²⁹ Эшонов О. Бухорода халқ революциясининг ғалабаси. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1970. – №8. – Б. 22.

³⁰ Қабулов Э. XVIII асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Сурхон воҳаси хўжалиги. Тарих фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.25.

mollarining 1916-yilga insbatan respublikada 5 barobar kamayib ketganligi kuzatiladi. Mazkur holat 85–90 foizi ziroatchilik bilan shug‘ullanadigan vohalar aholisi moddiy ahvolidning ayanchli holatga tushib qolishiga sabab bo‘ladi. Ahvoli nochor kishilarga 500 bosh qoramol ham tekin tarqatiladi³¹.

1920–1924-yillarda O‘zbekiston janubiy hududlarida dehqonchilik va chorvachilik sohalarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan hunarmandchilik artellari tashkil qilina boshlandi. BXSР yillarida mazkur hududlarda an‘anaviy hunarmandchilik mavjud bo‘lgan, ammo zamonaviy sanoat deyarli rivojlanmagan³². 1924–1925-yillarda O‘zbekistonda jami 196 ta zavod faoliyat ko‘rsatdi³³. Aksariyat sanoat korxonalari Toshkent, Farg‘ona va Samarqand hududlarida joylashgan bo‘lib, Xorazm va Surxondaryoda joylashgan sanoat korxonalarining soni 2 foizni tashkil etgan. Masalan, Surxondaryoda bitta sanoat korxonasi mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Qashqadaryoda bironta ham yo‘q edi. Ammo hunarmandchilik korxonalari soni anchagina edi. Jumladan, mazkur yilda O‘zbekistonda 7617 ta hunarmandchilik korxonalari faoliyat olib borgan bo‘lsa, ularning 403 tasi Qashqadaryoda, 59 tasi esa Surxondaryo oblastlari hududida joylashgan edi³⁴. BXSР hukumati imkon darajasida aholining iqtisodiy ahvolini yaxshilash chora-tadbirlarini amalga oshirdi.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi “Ijtimoiy sohadagi islohotlar va ularning natijalari” deb nomlanadi. 1920-yilning kuzida BXSР tarkibida bo‘lgan Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida yashagan aholining turmush darajasi nihoyatda og‘ir ahvolda edi. Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashagan bo‘lib, ular, asosan, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullangan. 1924-yilda BXSР 15 ta viloyatga bo‘lingan bo‘lib, ularning 6 tasi Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida joylashgan edi. Bu davrda respublika hududida jami 1.531.015 kishi istiqomat qilgan bo‘lsa, ularning 114.816 nafari shaharlarda, 1.416.199 nafari qishloqlarda yashagan. Mazkur aholining 395.252 nafari Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida yashagan bo‘lib, ularning 37715 nafari shaharlarda, ya‘ni 8,41 foizi, 357.537 nafari qishloqlarda yashagan va bu holat 91,5 foizni tashkil etgan³⁵. Mazkur davrda yashagan aholi ikki tomonlama aziyat chekkanligini ko‘rishimiz mumkin. Bir tomondan ichki kurashlarning davom etayotganligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan sovet hokimiyatining bosqinchilik yurishlari davom etayotgan edi. Bu davrda, chorvachilik sohasi 40 foizga, ekin maydonlari deyarli 2 baravarga, qorako‘l teri tayyorlash 20 baravarga, paxta yetishtirish esa 26 baravarga, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 50 foizga, savdo-sotiq aylanmasi esa 75 foizga pasayib ketdi³⁶. Shuningdek, BXSР hududida 40000 kishidan ortiq qizil armiya qismlari joylashgan bo‘lib, ularni ovqatlantirish

³¹ Хайитов Ш., Бадриддинов С., Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси: Иқтисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920–1924 йиллар). – Бухоро, 2005. – Б. 12.

³² Ўз МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2393-йиғма жилд, 30-варақ.

³³ Цензовая и кустарная промышленность Узбекистана (Статический обзор за 1924–1925 год) // “Народное хозяйство Средней Азии”, 1926. – № 8-9. – С. 42.

³⁴ Ўз МА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 816-йиғма жилд, 304-варақ.

³⁵ Материалы по районированию Средней Азии. Кн 1. Территория и население Бухары и Хорезма. Часть 1. Бухара – Ташкент, Изд. Комиссии по районированию Средней Азии, 1926. – С. 149.

³⁶ Бухара в государственном хозяйственном плане 1923–1924 гг. – Старая Бухара. 1923. – С. 15-16.

va boshqa turli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash ham xalqning zimmasida edi. Bu holat aholining yashash sharoitlarining o'ta past darajaga tushib qolishiga sabab bo'ldi.

Ijtimoiy sohaning muhim tarmog'i bo'lgan sog'liqni saqlash sohasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Respublikada sog'liqni saqlash xalq nozirligi tashkil etildi³⁷. Mazkur davrda Qarshi shahrida bitta xususiy shifoxona, Pattakesar qishlog'ida harbiy qism ixtiyorida kichkina kasalxona bo'lib, bitta harbiy vrach faoliyat olib borgan³⁸. Aholi o'rtasida yuqumli kasalliklardan chin chechak, vabo, bezgak, sil, rishta, ichburug', teri-tanosil kasalliklari, bolalar orasida qizamiq, qizilcha, bo'g'ma, ko'kyo'tal kabi xastaliklar keng tarqalgan bo'lib, bu holat esa aholi o'rtasida o'lim holatlarining ko'payishiga sabab bo'ldi.

1923-yilga kelib, respublika hududida 240 o'ringa ega bo'lgan 5 ta kasalxona faoliyat yuritgan. Jumladan, janubiy hududlarning Sherobod, Darband, Shahrisabz, Qarshi shaharlarida kasalxonalar ochildi. Surxondaryo hududida sog'liqni saqlash ishini yo'lga qo'yishda, epidemiyalarga qarshi kurashishda vrachlardan A.S. Mishkin, er-xotin Tyumenevlar, S.M. Salmin, P.F. Zabrodina, A.G. Nijegorodova, o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlaridan T.E. Arskaya, D.S. Sergeyev, A.P. Volkova, A.M. Ryaxina, P.S. Pareva, D.T. Gordeyevlarning xizmatlari katta bo'ldi³⁹.

BXSR hukumati xotin-qizlar masalasiga ham alohida e'tibor qaratdi. Ularni ijtimoiy mehnatga jalb qilishning turli yo'llari ishlab chiqildi. 1924-yil 24-martda VKP(b) MKning O'rta Osiyo byurosi plenumida xotin-qizlar masalasi ko'rib chiqilib, joylarda xotin-qizlar yig'ilishlarini o'tkazish, ularni ish bilan ta'minlash, viloyat tumanlarida xotin-qizlar sovetlarini tuzish tadbirlari belgilandi⁴⁰.

Ikkinchi bobning uchinchi paragrafi "Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida ta'lim, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati tarixi" deb nomlangan. BXSR hukumati tomonidan ta'lim, madaniy-ma'rifiy ishlar faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Dastlabki kunlardan hukumat tarkibida Maorif xalq nozirligi tashkil etildi. 1920–1924-yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida an'anaviy hamda sovet ta'lim tizimidagi maktablar faoliyat olib bordi. BXSR maorif vaziri Qori Yo'ldosh Po'latov rahbarligida "Maktablar haqida umumiy qoidalar" ("Qoidalar") ishlab chiqilib, uning matni 1920-yilning noyabr oyida "Buxoro axbori" gazetasida chop etilgan. 1921-yilning o'rtalarida Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida maorif bo'limlari tashkil etildi. 1921–1922 o'quv yilida Qarshi viloyatida 12 ta boshlang'ich va umumta'lim maktablari bo'lib, ularning 7 tasi Qarshi shahrida joylashgan edi⁴¹. 1922–1923-yillarda respublika hududidagi sovet maktablari soni 73 taga yetdi. Jumladan, Qarshida 10 ta, Termizda 4 ta, Shahrisabzda 5 ta, G'uzorda 5 ta maktab faoliyat ko'rsatdi. Mazkur maktablar oldida kechki savod kurslari ochilib, katta yoshli aholining savodini chiqarish ishlari ham yo'lga qo'yildi. Ta'lim tizimini o'qituvchi kadrlar bilan ta'minlash

³⁷ Ўз МА, Р-61-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 7-варак.

³⁸ Парфенов Т.В. Охрана народного здоровья хранения Сурхандарьинской области. Сурхондарё вилоят ўлкашунослик музейи. – № 242. – Б. 16.

³⁹ Бичков Д., Блинников А. Сурхондарё области. – Тошкент: Ўзбекистон, 1970. – Б. 24.

⁴⁰ Сурхондарё ВДА. 95-фонд, 1-рўйхат, 18-йиғма жилд, 90-варак.

⁴¹ Вилюятларда маориф ишлари. // "Бухоро ахбори", 1921 йил, 30 июнь.

maqsadida qisqa muddatli pedagogik kurslar ochildi. Mazkur davrda Qashqadaryo va Surxondaryoda sovet maktablarida ishlayotgan o'qituvchilar aynan ana shu kurslarni bitirgan kadrlar edi. 1924-yilda sovet maktablarini qamrab olgan o'quvchilar soni 5604 nafar bo'lib, barcha maktab yoshidagi bolalarning 3,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, eski usul maktablarida o'qiyotgan bolalar 12000 nafar bo'lib, ular maktab yoshidagilarning 6,6 foizini tashkil qilgan. Keltirilgan bu dalillar sovet maktablariga nisbatan, eski usul maktablarining mavqeyi yuqori bo'lganligidan darak beradi. Mazkur yilda Qashqadaryo viloyatida 76 ta eski usul maktablarida 1523 nafar o'quvchi ta'lim oldi⁴². O'sha vaqtda Surxondaryo viloyatida 205 ta eski usul maktablari faoliyat ko'rsatmoqda edi.

Buxoro hukumati mamlakatda madaniy-ma'rifiy muassasalar tashkil qilish ishiga ham alohida e'tibor qaratdi. Xususan, turli shakldagi klublar, kutubxona, teatr, qiroatxona, qizil choyxona, qizil burchak, "dehqon uylari", qizil arava kabi muassasalar shular jumlasidandir. BXSР yillarida musiqa san'atini rivojlantirish masalalariga ham alohida e'tibor berildi. 1921–1922-yillarda Sherobod, Qarshi va Shahrisabzda musiqa maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi⁴³. Mazkur davrda Qarshi va Termiz shaharlarida bittadan klub, shu miqdorda qizil choyxonalar faoliyat ko'rsatdi⁴⁴. Ushbu muassasalar asosan maorif bo'limlari, kasaba uyushmalari va "Qo'shchi soyuzi" tashkilotlari tomonidan ochildi⁴⁵. Qizil choyxonalarda siyosiy adabiyotlarni tarqatish, gazetalarni ovoz chiqarib o'qish, devoriy gazetalarni chiqarish yo'lga qo'yildi. Shuningdek, 1922-yilda Qarshi, G'uzor, Shahrisabz, Termiz, Sherobod, Boysun tumanlarida bittadan kutubxonalar faoliyat ko'rsatdi⁴⁶. Mazkur davrda janubiy hududlarda klub muassasalarining partiya, ishchi, xotin-qizlari klublari kabi bir necha xil turlari keng tarqaldi.

Xulosa qilib aytganda, BXSР yillarida Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari aholisi murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy davrni o'z boshidan kechirdi. Aholining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan shug'ullangan. Vohalar aholisi asosan an'anaviy hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lib, zamonaviy sanoat deyarli yo'q holatda edi. Aholi farzandlari uchun ikki shakldagi o'qitish tizimi faoliyat olib bordi. Madaniy-ma'rifiy muassasalarning klublar, kutubxonalar, qizil burchaklar, "dehqon uylari" kabi turlari faoliyat yuritdi.

Dissertatsiyaning **"1925–1941-yillarda O'zbekiston janubida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayotdagi o'zgarishlar va muammolar"** deb nomlangan uchinchi bobida, iqtisodiy hayotdagi o'zgarishlar, ijtimoiy jarayonlar va ularning natijalari, ta'lim tizimi, sovet hukmron mafkurasini targ'ib etishda madaniy-ma'rifiy muassasalarning o'rni kabi masalalar yoritib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "Iqtisodiy hayotdagi tub o'zgarishlar, umumiylik va o'ziga xoslik" deb nomlangan. 1924-yil 24-oktabrda O'rta Osiyoda milliy hududiy chegaralanish siyosati amalga oshirildi. BXSР zo'ravonlik yo'li bilan tugatildi. 1925-yil 13-fevralda Buxoroda O'zSSR Sovetlarining I syezdi

⁴² Қашқадарё ВДА. 83-фонд, 1-рўйхат, 143-йиғма жилд, 108-109-варақлар.

⁴³ Ўз МА, 56-фонд, 1-рўйхат, 43-йиғма жилд, 146-варақ.

⁴⁴ Ўз МА Р-94- фонд, 1-рўйхат, 52-йиғма жилд, 13-варақ.

⁴⁵ Қашқадарё ВДА. 7-фонд, 1-рўйхат, 3-йиғма жилд, 12-варақ.

⁴⁶ Ўз МА, Р-56-фонд, 1-рўйхат, 25-йиғма жилд, 24-варақ.

bo‘lib o‘tdi. 17-fevralda esa “O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi to‘g‘risida Deklaratsiya” qabul qilindi. Qashqadaryo oblast, Surxondaryo okrug sifatida O‘zSSR tarkibiga kiritildi. Mazkur davrda, respublikada mehnat qilishga layoqatli bo‘lgan aholining 85 foizi qishloq xo‘jaligida band edi⁴⁷. Yalpi ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 80 foizini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tashkil etardi⁴⁸. Sanoatning 90 foiz qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlash bilan shug‘ullanardi. Bundan ko‘rinadiki, o‘sha davrda iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor omillaridan biri keng miqyosli agrar islohotlarni amalga oshirishdan iborat edi. Bu davrda Surxondaryo hududining umumiy yer maydoni 2.128.566 desyatini tashkil etgan, shundan faqat 153.000 desyatina yer dehqonchilik maqsadlarida foydalanilgan. Qashqadaryo hududida 44 ming 670 desyatina sug‘oriladigan yerlar bo‘lib, shundan 2800 desyatini paxta chigiti ekishga moslashgan, 47760 desyatina yerda esa lalmi dehqonchilik qilingan⁴⁹.

Ma‘lumki, O‘zbekiston hududida yer-suv islohoti uch bosqichda amalga oshirildi. 1928–1929-yillarda Qashqadaryo va Surxondaryo hududlarida yer-suv islohotlari bo‘lib o‘tdi⁵⁰. Bu davrda hududda yuz bergan siyosiy qarama-qarshiliklar mazkur islohotni amalga oshirishga to‘sqinlik qildi. Bu tadbir natijasida vohalarda normadan ortiq sug‘oriladigan yerlari bo‘lgan mulk egalari yerlari musodara qilinib, kolxozlar tashkil etildi. Jumladan, 1928-yilda Qashqadaryo okrugida 15 ta kolxoz mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 1929-yilda ularning soni 178 taga yetdi⁵¹. Mazkur yilda Surxondaryo okrugida olib borilgan yer-suv islohoti natijasida boy va ulamolarga tegishli bo‘lgan 531 ta xo‘jalik tugatildi. Jamolashtirish jarayonlarida ixtiyoriylikka amal qilinmadi. Yer-suv islohotining amalga oshirilishi jarayonida sovetlarga qarshi jiddiy qarshiliklar sodir etilgan. Qarshilik ko‘rsatgan mulk egalari quloq qilish siyosati amalga oshirildi.

1930-yilda birgina Shahrisabz tumanidan quloq qilingan xo‘jaliklar soni 911 tani tashkil etgan bo‘lsa, 1931-yilda 398 taga yetdi⁵². Mazkur yilda Surxondaryo okrugida quloq qilinganlar uchun Sariosiyo rayonida 17-sonli bog‘dorchilik sovxozi, Jarqo‘rg‘on rayonida “Surxon”, “Qumqo‘rg‘on” va “Oqqapchig‘ay” sovxozlari, Denov rayonida “Hazarbog‘” sovxozlari tashkil etildi. Ushbu sovxozlarga chetdan majburan ko‘chirib keltirilgan quloqlar joylashtirildi⁵³.

XX asrning 20-yillari o‘rtalariga kelib, sanoat sohasida ham sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosati tobora kuchayib bordi. O‘zbekiston hududida esa, asosan, paxtachilikni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan sanoat tarmoqlari, aholining yashashi va turmush kechirishi bilan bevosita aloqador bo‘lgan oziq-ovqat, kiyim-kechak va hokazolar ishlab chiqaradigan yengil sanoat korxonalarini tashkil etish yo‘li tutildi.

⁴⁷ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К 2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 326.

⁴⁸ Ўз МА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 26-иш, 16-варак.

⁴⁹ Қашқадарё вилояти ҳокимлиги жорий архиви, 34-фонд, 1-рўйхат, 1-йиғма жилд, 17-варак.

⁵⁰ Аскарлов М.Э. Из истории земельно-водной реформы в Зерафшанской области // Новое слово в науке и практике: гипотезы и апробация результатов исследований. – № 23, 2016 года. – С. 36.

⁵¹ Қашқадарё ВДА, 81-фонд, 1-рўйхат, 122-йиғма жилд, 234-варак.

⁵² Қашқадарё ВДА Шаҳрисабз филиали. 3-фонд, 1-рўйхат, 46-йиғма жилд, 47-варак.

⁵³ Шеробод туман давлат архиви, 42-фонд, 1-рўйхат, 363-йиғма жилд, 252-варак.

1925-yilda Surxondaryo vohasi hunarmandchilik korxonalari bo'yicha respublikada oxirgi o'rinda bo'lib, ularda 148 nafar ishchi faoliyat olib bordi. Jami hunarmandchilik korxonalarining 0,8 foizi, ishchilarning 1,0 foizi mazkur viloyatga to'g'ri keldi⁵⁴. 1940-yilda O'zbekistonda sanoat korxonalari soni 1445 ta bo'lib, ularning 514 tasi Toshkent hududida, 195 tasi Samarqandda va 51 tasi Qashqadaryoda, 59 tasi esa Surxondaryo vohalarida joylashgan edi⁵⁵. Viloyatlar kesimida solishtirib ko'rilganda ham eng kam sanoat korxonalari Surxondaryo, Qashqadaryo hududlariga to'g'ri kelgan.

1924–1925-yilda respublikada 6 ming tonna neft ishlab chiqargan bo'lsa, 1940-yilda bu ko'rsatkich 119 ming tonnani tashkil etdi. Ushbu neftning 82 ming tonnasi Surxondaryo viloyati hissasiga to'g'ri keldi⁵⁶. Ana shunday neft konlarining topilishi O'zbekiston sanoati uchun juda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Uchinchi bobning ikkinchi paragrafi “Ijtimoiy jarayonlar va ularning natijalari” deb nomlanadi. XX asr 20-yillari o'rtalariga kelib, respublika aholisi ijtimoiy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Eng avvalo, sovet davlati tomonidan aholini ijtimoiy jihatdan tenglashtirish, ijtimoiy tabaqalar o'rtasidagi tafovutlarni tugatish yo'li tutildi. Bizga ma'lumki, mazkur jarayon zo'ravonlik, turli xil tayziqlar asosida amalga oshirib borildi. Ushbu davrdan boshlab, aholi turli qatlamlari ehtiyojlari, manfaatlari, maqsad va vazifalari bir xillikka qaratildi.

Mazkur davrda qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilayotgan dehqonlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ba'zi sharoit va imkoniyatlar yaratildi. 1926–1927-yilda “Qishloq xo'jaligi banki”dan Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari dehqonlarining qishloq xo'jaligida ishlatiladigan asbob-uskunalar (inventarlar) olishlari hamda ishchi qoramollar va ekin ekish uchun urug'-don olishlari uchun kredit mablag'lari ajratildi. Mazkur holat imkon darajasida qishloq xo'jaligi sohasining bir oz bo'lsa-da, yaxshilanishiga sabab bo'ldi.

Shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilish maqsadida artellar faoliyati yo'lga qo'yildi. Artellarda, asosan, bichish-tikish, ko'rpa qavish, paxta tozalash, gilam to'qish, do'ppido'zlik kabi ishlar amalga oshirildi. Tadqiq etilayotgan yillarda sovet hukumati tomonidan xotin-qizlarni ijtimoiy hayotga jalb etish masalasiga siyosiy tus berildi. Xotin-qizlarni ijtimoiy mehnatga jalb qilish maqsadida hunarmandchilik artellari tashkil etildi. Ularning faolligini oshirish maqsadida, turli xildagi madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi.

1925–1941-yillarda aholi sog'lig'ini saqlash maqsadida shifoxonalar qurilishi amalga oshirildi. 1926-yilda Sherobod tumanida 25 o'ringa mo'ljallangan shifoxona ishga tushirildi. Mazkur yilda Surxondaryo viloyatida sog'liqni saqlash sohasi uchun 207967 rubl, Qashqadaryo viloyatiga 393885 rubl ajratildi⁵⁷. Bu davrda janubiy hududlarning Qarshi, Shahrisabz, Koson, G'uzor⁵⁸, Termiz, Sherobod, Boysun va Denov tumanlarida shifoxonalar faoliyat ko'rsatdi. Tibbiyot

⁵⁴ Ўз МА, Р-25-фонд, 1-рўйхат, 816-йиғма жилд, 303- варақ.

⁵⁵ Зиёдуллаев С., Манохин И. Совет Ўзбекистонининг социалистик саноати. – Тошкент, 1949. – Б. 58.

⁵⁶ Ўз МА, Р-2-фонд, 1-рўйхат, 10-йиғма жилд, 22-варақ.

⁵⁷ Народное здравоохранение в Узбекистане. – Самарканд.: Изд. Управление информации ЦИК и СНК Уз.ССР, 1927. – С. 22.

⁵⁸ Қашқадарё ВДА, 83-фонд, 1-рўйхат, 14-йиғма жилд, 60-68-варақлар.

muassasalarida, asosan, rus millatiga mansub shifokorlar mehnat qilishdi⁵⁹. Mahalliy aholi ko‘p holatlarda tabiblarga murojat etishga majbur bo‘lishgan. 1940-yilda ham O‘zbekiston janubiy hududlarida tibbiyot kadrlarining yetishmasligi hamda tibbiy asbob-uskunalar taqchilligi masalasi sohadagi asosiy muammolardan biri sifatida saqlanib qolindi.

Uchinchi bobning uchinchi paragrafi “Ta’lim tizimida amalga oshirilgan o‘zgarishlar, kadrlar tayyorlashning holati” deb nomlanadi. Sovet davlati tomonidan bir qator chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 20-yillarning o‘rtalaridan O‘zbekiston hududida ta’lim tizimi hukmron mafkuraga xos yangi ko‘rinishda qaror topib bordi. 1924–1925-o‘quv yilidan boshlab O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida maorif tizimi faoliyatini yaxshilash uchun ajratilayotgan mablag‘lar hajmi oshirib borildi.

Yuqoridagi yillarda Qashqadaryo viloyatiga 85,731 so‘m, Surxondaryo viloyatiga 89,092 so‘m ajratildi. Respublikada katta yoshli aholi uchun savodsizlikni tugatish maktablari tashkil qilinib, yildan yilga ularning soni oshirib borildi. Shu yillarda O‘zbekistonda 1005 ta savodsizlikni tugatish maktablari ochildi. Bu davrda Qashqadaryoda 15 ta, Surxondaryo viloyatida 5 ta savodsizlikni tugatish maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi⁶⁰ Umumiy boshlang‘ich ta’limni joriy etish, “savodsizlik”ni tugatish kabi islohotlar ham og‘ir sharoitda zo‘ravonlik bilan amalga oshirildi. Maktablarni tashkil etish jarayonida o‘quv binolarining yetishmasligi katta qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Maktablarning deyarli barchasi moslashtirilgan binolarda faoliyat ko‘rsatdi.

Maorif tizimidagi eng katta muammolardan biri sovet maktablarini o‘qituvchi kadrlar bilan ta’minlash masalasi edi. 1925-yilda O‘zbekistonda o‘qituvchi kadrlarning 80% qisqa muddatli kurslarda o‘qidi.⁶¹ O‘zSSR Maorif xalq komissarligi 1925–1926-o‘quv yilidan boshlab ikki yillik kurslar ochish yo‘liga o‘tdi, lekin bu muddat bilimli, layoqatli o‘qituvchilarni tayyorlashda eng qisqa muddat edi. 1927-yilda maktablarni o‘qituvchi kadrlar bilan ta’minlash maqsadida Qarshi va Termiz shaharlarida pedagogika bilim yurtlari tashkil etildi.

Mazkur davrda respublikada hali an’anaviy ta’lim tizimi muassasalari ham faoliyat yuritib kelayotgan edi. 1926–1927-yillarda respublikada 7952 nafar bolani qamrab olgan 347 ta eski usul maktabi mavjud bo‘lib⁶², ularning 27 tasi Qashqadaryo oblastida⁶³, 60 tasi Surxondaryo oblastida faoliyat ko‘rsatmoqda edi⁶⁴. 1928-yil 18-noyabrda O‘zSSR MIKning 2-chaqiriq 4-sessiyasi “Eski usul maktablari va qorixonalarni tugatish to‘g‘risida” qaror qabul qildi⁶⁵. Mazkur qaror asosida barcha an’anaviy ta’lim muassasalari faoliyati to‘xtatildi. Sovet maktablari sonini keskin oshirish choralari ko‘rildi. 1927–1928-o‘quv yilida Qashqadaryo hududidagi birinchi bosqich maktablari 109 ta bo‘lsa, 1929–1930-o‘quv yilida

⁵⁹ Турсунов С., Қобилов Э ва бошқ. Сурхондарё тарих кўзгусида. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 323.

⁶⁰ Ўз МА, Р 94-фонд, 1-рўйхат, 221-йиғма жилд, 35-варақ.

⁶¹ ЎзМА, Р-94-фонд, 1-рўйхат, 333-йиғмажилд, 114-варақ.

⁶² ЎзМА, Р-837-фонд, 1-рўйхат, 502- йиғмажилд, 69-варақ.

⁶³ Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат, 37-йиғмажилд, 1-варақ.

⁶⁴ Сурхондарё ВДА, 89-фонд, 1-рўйхат, 104-йиғмажилд, 29-варақ.

⁶⁵ ЎзМА, Р- 86-фонд, 1-рўйхат, 4773-йиғмажилд, 15-61-варақлар.

ularning soni 173 taga yetdi. Surxondaryo oblastida 1927–1928-o‘quv yilida 63 ta, 1929–1930-o‘quv yilida 137 tani tashkil etdi⁶⁶.

1940–1941-o‘quv yilida maktablar soni keskin oshib, ularning 303 tasi Surxondaryo hududida, 470 tasi Qashqadaryo oblastida faoliyat ko‘rsatdi. Ammo maktablarda yetarli shart-sharoitning yo‘qligi, oliy ma‘lumotli o‘qituvchi kadrlarga bo‘lgan talabning saqlanib qolganligi, shuningdek, o‘qitish tizimining rus-kirill alfavitiga o‘tkazilishi, ularning faoliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

Uchinchi bobning to‘rtinchi paragrafi “Sovet hukmron mafkurasini targ‘ib etishda madaniy-ma‘rifiy muassasalarning o‘rni” deb nomlandi. XX asrning 20-yillari o‘rtalariga kelib, davlat siyosatini aholi orasida targ‘ibot-tashviqot qilish maqsadida tashkil etilgan madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyati kengayib, son jihatidan oshib bordi. Mazkur muassasalar bir maqsad yo‘lida shakllantirilgan bo‘lsa-da, har biri o‘z ish shakli hamda maqsad va vazifasiga ega bo‘lgan.

O‘zbekistonning janubiy hududlarida klublarning turli shakllari, kutubxonalar, qizil choyxonalar, qizil burchaklar, “dehqon uylari”, matbuot nashrlari, teatrlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Jumladan, 1925-yildan boshlab, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida 5 tadan klub muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu muassasalar ixtiyorida kutubxonalar ham tashkil etildi. 1940-yilda O‘zbekistonda 2804 ta klub muassasasi ish olib bordi. Mazkur klub muassasalarining 148 tasi Qashqadaryo viloyatida, 86 tasi Surxondaryo viloyatida ish olib bordi⁶⁷. Jumladan, “Hujum” harakatini amalga oshirishda xotin-qizlar klublari faoliyatiga alohida e‘tibor qaratildi. Shoshmashosharlik bilan amalga oshirilgan ushbu tadbir oqibatida janubiy viloyatlarda faoliyat ko‘rsatgan ilg‘or xotin-qizlardan Jamila Jumayeva, Anzura Jo‘rayeva,⁶⁸ Rohatibi Tursunova, Zaynabxon Hamroyeva, Mengnora Bo‘tayevalar⁶⁹ kabi o‘nlab xotin-qizlar fojiali halok bo‘ldi.

Madaniy-ma‘rifiy muassasalarning keng tarqalgan turlaridan yana biri qizil choyxonalar edi. Jamoalashtirish, kolxoz va sovxozlar tashkil etilishi jarayonlarida ushbu muassasalar keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirdi. 1928–1929-yillarda respublikada 371 ta qizil choyxona faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, ularning 15 tasi Qashqadaryo hududida⁷⁰, 18 tasi Surxondaryo okrugida faoliyat ko‘rsatdi⁷¹. Shuningdek, qizil choyxonalar islom diniga qarshi olib borilgan kurashda targ‘ibot o‘chog‘i sifatida, mahalliy aholi turmush tarzida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan milliy urf-odatlar, qadriyatlarni tahqirlovchi tashviqotlar olib borish jarayonida ham faol ishtirok etdi. 1940-yilga kelib, O‘zbekiston hududida 4000 ta qizil choyxona, 1775 ta kutubxona faoliyat olib bordi⁷². Qizil choyxonalarning 209 tasi, kutubxonalarning 153 tasi Qashqadaryo hududida joylashgan edi⁷³. Shuningdek, qizil choyxonalarning 134 tasi, kutubxona muassasalarining 93 tasi Surxondaryo viloyatida ish olib bordi.

⁶⁶ Қашқадарё ВДА, 7-фонд, 1-рўйхат, 177-йиғмажилд, 1-варак.

⁶⁷ Народное хозяйство Уз ССР за 70 лет советской власти. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – С. 278.

⁶⁸ Ўлжаева М. Улар матонат кўрсатишган эди // Янги ҳаёт, 1981. 7 март.

⁶⁹ Сурхондарё ВДА. 95-фонд, 1-рўйхат, 18-йиғма жилд, 76-варак.

⁷⁰ Қашқадарё ВДА. 7-фонд, 1-рўйхат, 155-йиғма жилд, 99-варак.

⁷¹ Сурхондарё ВДА. 39-фонд, 1-рўйхат. 7-йиғма жилд, 148-варак.

⁷² Рўзметов А. Клуб муассасаларида ғоявий-сиёсий тарбия. – Тошкент, 1982. – Б. 49.

⁷³ Қашқадарё вилояти ҳокимлиги жорий архиви, 34-фонд, 1-рўйхат, 906-йиғма жилд, 124-варак.

Sovet hokimiyati o‘z g‘oya va mafkuralarini keng targ‘ib etishda mahalliy matbuotdan ham keng foydalandi. 1925-yil 22-mayda “Qashqadaryo”, 1935-yil 18-martda “Ilg‘or Surxon uchun” gazetalari nasr etildi. Bu davrda janubiy hududlarda teatrlar faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi.

Xulosa qilib aytganda, Milliy hududiy chegaralanish siyosatining amalga oshirilishi, respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi. Iqtisodiy sohada o‘zgarishlarning yangi bosqichi boshlandi. Qishloq xo‘jaligi sohasida jamoalashtirish, quloqlashtirish siyosati amalga oshirildi. Aholiga xizmat ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash sohalarida ma‘lum o‘zgarishlar qilindi. Sovet davlati mafkurasiga xizmat qiluvchi sovet maktablari, madaniy-ma‘rifiy muassasalar faoliyati kengaytirib borildi.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi bobi **“Ikkinchi jahon urushi yillarida O‘zbekiston janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayot”** deb nomlangan bo‘lib, unda xalq xo‘jaligining front ehtiyojlari uchun yo‘naltirilishi, aholining ijtimoiy ahvoli, ta‘lim sohasidagi siyosat, madaniy-ma‘rifiy muassasalarning targ‘ibotchilik faoliyati tahlil etilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida iqtisodiy ahvol, xalq xo‘jaligining front ehtiyojlariga yo‘naltirilishi” deb nomlanadi. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari front uchun mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi. Shusiz ham sanoati kam rivojlangan, amalda og‘ir sanoati urushga qadar umuman bo‘lmagan Qashqadaryo oblastidagi yengil sanoat tarmoqlari harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirildi. 1941-yilda Qashqadaryo hududidagi sanoat artellari soni 22 tani tashkil etdi. Ular asosan Kitob, Beshkent va Shahrisabz rayonlarida joylashgan edi⁷⁴. O‘zbekiston hududiga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalarining 12 tasi Surxondaryo oblastiga joylashtirildi. 1943-yil 19-iyulda Qarshi shahrida “Tikuv va poyafzal” fabrikasi tashkil etildi va front ehtiyojlari uchun bir necha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarildi⁷⁵. Neft sanoati bilan bog‘liq konlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Kitobda konserva zavodi, Boysun, Qo‘hitang va Sharg‘unda ko‘mir, Xo‘jaikon va Dehqonobod rayoni hududidan tuz qazib chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Urush qishloq xo‘jaligi oldiga ham yangi vazifalarni qo‘ydi. O‘zbekistonning janubiy hududlarida don mahsulotlari tayyorlashni 2-3 barobar oshirish, shuningdek, qandlavlagi, sholi, zig‘ir, kunjut kabi mahsulotlar yetishtirishga, paxta xomashyosini yetishtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. 1942-yilda Qashqadaryo dehqonlari davlatga 745 ming sentner g‘alla topshirishga muvaffaq bo‘ldi. Surxondaryo vohasi mehnatkashlari 223 ming tonna don topshirdi⁷⁶. Mazkur davrda dehqonchilik bilan chorvachilikni rivojlantirishga ham e‘tibor qaratildi. Natijada, 1945-yilga kelib, Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonda yetishtirilayotgan barcha go‘sht mahsulotlarining 22,5 foizini, yog‘ning 10 foizini, tuxumning 15 foizini, brinzaning 24 foizini, junning 28 foizini topshirishga muvaffaq bo‘ldi⁷⁷.

⁷⁴ Qashqadaryo VDA, 1-fond, 1-rўyxat, 46-йиғма жилд, 94-варақ.

⁷⁵ Qashqadaryo VDA, 237-fond, 2-rўyxat, 1-йиғма жилд, 26-варақ.

⁷⁶ Surxondaryo VDA. 361-fond, 1-rўyxat, 36-йиғма жилд, 23-24 варақлар.

⁷⁷ Турдиев С. Трудовой подвиг женщин Узбекистана в годы Великой отечественной войны Советского союза. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1971. – С. 25.

Urushning g'alaba bilan yakunlanishida janubiy hududlar aholisi ham munosib hissa qo'shdi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi "1941–1945-yillarda O'zbekiston janubiy hududlari aholisining ijtimoiy ahvoli, uning o'ziga xos jihatlari" deb nomlanadi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi butun mamlakat aholisi ijtimoiy ahvolidan yomonlashuviga, maishiy turmush sharoitlarining og'ir ahvolga tushib qolishiga sabab bo'ldi. Janubiy hududlar aholisi o'rtasida, oziq-ovqat tanqisligi sharoitida "kartochka" tizimi joriy etildi. Urush yillarida aholining muayyan qatlamlari uchun davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tizimi yaratildi. Aholi tarkibida harbiy xizmatchilarning oilasi, evakuatsiya qilinganlar, urush nogironlari, yetim bolalar deb nomlangan yangi ijtimoiy guruhlar paydo bo'ldi.

O'zbekistonning janubiy hududlarida ham harbiy xizmatchilar va urush nogironlariga imtiyozli yordamlar ko'rsatish komissiyalari, aholi va korxonalaridan tushadigan homiylik mablag'larini to'playdigan jamg'armalar tashkil etildi. Qashqadaryo viloyatida 1943-yilning 7-may holatiga ko'ra, 31,170 nafar harbiy xizmatchilar va urush nogironlarining oilasiga 67,377 rubl moddiy yordam ko'rsatildi, 1481 rubllik kiyim-kechak, 2143 rubllik poyabzal tarqatildi. Mazkur yilda Termiz rayonidagi jangchilarning oilalariga 138000 so'm nafaqa pullari to'langan, harbiy xizmatchilarning oilalariga tegishli bo'lgan 392 uy ta'mirlangan va 42 kishiga uy berilgan⁷⁸. Bu borada ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi ham aniqlandi.

Urush bo'layotgan hududlardan Qashqadaryo va Surxondaryo oblastlariga aholini evakuatsiya qilish ishlari olib borildi. 1941–1942-yillarda O'zbekistonga 716543 nafar kishi evakuatsiya qilindi. Ulardan 126514 kishi Buxoro oblastiga to'g'ri kelgan bo'lsa⁷⁹, ularning 30000 ga yaqini Qashqadaryo hududiga, 719 ta oila yoki 1862 kishi Surxondaryo oblastiga evakuatsiya qilindi⁸⁰. Shuningdek, ko'chirib keltirilganlar orasida bolalar va ular bilan birgalikda bolalar uylari ham ko'chirib keltirildi. 1944-yilda janubiy hududlarda 21 ta bolalar uylari bo'lib, ularning 14 tasi Qashqadaryo oblastida⁸¹ faoliyat ko'rsatdi. Ularda 1976 nafar bolalar tarbiyalandi. Shahrisabz rayoni xalq ta'limi bo'limi mudiri Xoyim Yoqubov⁸² mahalliy aholining bevosita yordami asosida, rayondagi bolalar uyida tarbiyalanayotgan 300 dan ortiq bolalarni turli xildagi kiyim-kechak bilan ta'minlash jarayoniga yetakchilik qildi. Shu yili Surxondaryo oblastidagi bolalar uylari soni 7 taga yetdi⁸³, ulardagi bolalar soni 1146 nafarni tashkil etdi. Ammo mazkur bolalar uylarida 785 ta karavot, 725 ta matras, 1627 ta choyshab, 450 ta ko'rpa, 2244 ta sochiq va bolalar uchun kiyim-kechaklar yetishmayotganligi ham e'tirof etildi⁸⁴.

⁷⁸ Илғор Сурхон учун. 31 март, 1943 йил.

⁷⁹ Турдиев С. Жасорат унутилмайди. 1941-1945 уруш йилларида қаршиликлар. – Қарши: Насаф. 1997. – Б. 56.

⁸⁰ Сурхондарё ВДА, 45-фонд, 1-рўйхат, 151-йиғма жилд, 7-варақ.

⁸¹ Иркаева Н. Қашқадарё ва Сурхондарё вилоятлари Иккинчи жаҳон уруши йилларида. – Тошкент: Янги нашр, 2015. – Б. 59.

⁸² Маҳмудов В. Қашқадарё халқ таълимининг тараққиёт йўли. – Қарши: Насаф, 1999. – Б. 9.

⁸³ Сурхондарё ВДА, 45-фонд, 1-рўйхат, 130-йиғмажилд, 200-201-варақлар.

⁸⁴ Сурхондарё ВДА, 45-фонд, 1-рўйхат, 130-йиғмажилд, 200-201-варақлар.

Urush yillarida janubiy hududlar aholisi salomatligini saqlash maqsadida shifoxonalar bilan birga, feldsherlik punktlari, shuningdek, Qarshi va Termiz shaharlarida yarador jangchilar uchun bittadan harbiy hospital faoliyat ko'rsatdi.

To'rtinchi bobning uchinchi paragrafi "Ta'lim sohasidagi siyosat, madaniy-ma'rifiy muassasalarning targ'ibotchilik faoliyati" deb nomlandi. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi, ta'lim tizimi, madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida ham murakkab vaziyatni vujudga keltirdi. Ayniqsa, mazkur sohalarda faoliyat yuritib kelayotgan mutaxassislarning frontga safarbar etilishi, maktablar uchun binolarning yetishmasligi, ularning ish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1941–1942-o'quv yilida Qashqadaryo oblasti hududidagi maktab binolarining 50 foizdan ortig'i qarovsiz holatda bo'lib, ularning 24 tasi esa butunlay yaroqsiz ahvolda edi⁸⁵. Shuningdek, mazkur davrda bolalarning maktablarni tark etish holatlari kuzatildi. Maktablarda davomat va o'zlashtirish darajasi nihoyatda tushib ketdi. Imkon darajasida mazkur muammolarni hal etish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Maktab-internatlar tashkil etish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Urush yillarida pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojni bartaraf etish maqsadida doimiy ravishda turli xil muddatlarga mo'ljallangan kurslar tashkil etildi. Zarurat yuzasidan kurslarga 7-8 sinflarni tugatgan yigit-qizlar ham jalb etildi. Shuningdek, xotin-qizlardan o'qituvchi kadrlar tayyorlash jarayonlariga ham e'tibor qaratildi. Denov rayonida ham o'qituvchilar tayyorlaydigan 2 va 4 oylik kurslar ochildi.

1943–1944-o'quv yilida Buxoro o'qituvchilar instituti, uning Shofirkon va G'ijduvon tumanlaridagi filiallarida Qashqadaryo, Surxondaryo oblastlari maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash ishlari yo'lga qo'yildi. 1945-yilning 1-sentabrida Buxoro birlashgan pedagogika va o'qituvchilar institutining Qarshi filiali sifatida tashkil etildi⁸⁶.

Ikkinchi jahon urushi madaniy-ma'rifiy muassasalari faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyatida qisqarishlar yuz berdi. Jumladan, 1941-yilda 994 ta madaniy-ma'rifiy muassasadan faqat 699 tasi qoldi⁸⁷. Urush yillarida madaniy-ma'rifiy muassasalarning kutubxona, klub, teatr, radio, vaqtli matbuot nashrlari kabi turlari aholi o'rtasida turli xildagi targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirdi. Ularning xodimlari aholi o'rtasida jangchilar uchun issiq kiyim-kechaklar yig'ish jarayonlarida ham ishtirok etdi.

